

**“O‘ZFARMSANOAT” ASSOTSIATSIYASI BILAN O‘ZBEKISTON KIMYO VA
FARMATSEVTIKA SANOATI XODIMLARI KASABA UYUSHMASI RESPUBLIKA
KENGASHI O‘RTASIDA 2025 – 2027-YILLAR UCHUN TUZILGAN TARMOQ JAMOA
KELISHUVIGA KIRITILGAN
O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR**

TOSHKENT – 2026-yil

*“O‘zfarmosanoat” Assotsiatsiyasi hamda
Kimyo va farmatsevtika sanoati xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi
Ijroiya qo‘mitasining 2026-yil 20-fevraldagi
3/ 3-9 “s”-sonli qo‘shma qaroriga 2- ilova*

T/r	Tarmoq jamoa kelishuvining bo‘limi va bandi	Amaldagi tahriri	Kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar (yangi tahrir)	O‘zgartirish kiritishga asos
I. UMUMIY QOIDALAR				
	Yangi band		Davlat organlari va tashkilotlari hamda davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlarining inson resurslari bilan ishlashga mas’ul tarkibiy tuzilmalarining rahbar va xodimlarini har uch yilda kamida bir marta mehnat munosabatlarini tashkil etish bo‘yicha malakasini oshirib borish.	BJK 31- band
	Yangi band		Tarablarning 3 nafardan iborat vakillari tarkibida ijtimoiy-mehnat sohasidagi huquqiy hujjatlarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha yuzaga keladigan muammoli masalalar bo‘yicha maslahat kengashini tuzish.	BJK 36-band
	5 bandi	Kasaba uyushmasiga a‘zolik badallari xodimning yozma roziligi bilan buxgalteriya orqali pul o‘tkazish yo‘li bilan tegishli kasaba uyushma qo‘mitasi hisob-raqamiga o‘tkaziladi.	Xodimlarning roziligi bilan korxonada buxgalteriyasi orqali, oylik ish haqi va unga teglashtirilgan to‘lovlardan, ixtiyoriy kasaba uyushma a‘zolik badallarini naqd pulsiz yig‘ish sistemasi tashkil qilinishini hamda yig‘ilgan a‘zolik badallarini kasaba uyushma qo‘mitasining tegishli hisob raqamiga o‘tkazilishini ta‘minlash.	BJK134-band

	Yangi band		Dolzarb ijtimoiy iqtisodiy masalalarni muxokama qilish uchun kasaba uyushma faollari va ish beruvchilarning vakillari bilan jamoatchilik eshituvlarini tashkil etib boradi.	BJK 133-bandi
	Yangi band		Ish beruvchi xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar loyihalarini boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishgan holda qabul qiladi	BJK 19-band
	Yangi band		Ish beruvchi va xodim o'rtasidagi mehnat munosabatlariga oid nizolarni sudgacha hal etish jarayonida kasaba uyushmasi yarashtiruvchi organ sifatida tashkilot ishini amalga oshiradi, tomonlarni eshitadi va murosaga keltirish choralarini ko'rish.	BJK 20-band
	Yangi band		Korxonaning moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi vazifasini bajaruvchi xodimga oylik ish haqining (ishbay to'lovda - o'rtacha ish haqining) kamida 20 foizi miqdorida qo'shimcha haq to'lanadi.	BJK 50-bandi
II. MEHNAT SHARTNOMASI. BANDLIK KAFOLATLARI BO'LIMI				
1.	Yangi band		Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etgan ish beruvchilarda qisqartirishga tushgan xodimlarni zamonaviy soha va mutaxassisliklarga qayta o'qitish choralarini ko'rish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.	BJK 35-band
2.	Yangi band		“Yashil ishlab chiqarish” tamoyillarini joriy etish jarayonida energiya tejamkorligi texnologiyalariga o'tishda ish o'rinlari qisqartirilishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish.	BJK 72-band

V. MEHNATGA HAQ TO‘LASH.

3.	39-band	<p>Ish vaqtidan tashqari ishning muddati har bir xodim uchun surunkasiga ikki kun davomida to‘rt soatdan (mehnat sharoiti og‘ir va zararli ishlarda – bir kunda ikki soatdan) va yiliga 120 (bir yuz yigirma) soatdan ortiq bo‘lmasligini ta‘minlash.</p>	<p>Ish vaqtidan tashqari ishning davomiyligi xodim uchun surunkasiga ikki kun davomida to‘rt soatdan (mehnat sharoitlari noqulay bo‘lgan ishlarda — bir kunda ikki soatdan) oshmasligi kerak. Ish beruvchi xodimning ish vaqtidan tashqari ishining davomiyligi aniq hisobga olinishini ta‘minlashi shart.</p> <p>Dam olish, ishlanmaydigan bayram kunlaridagi va ish vaqtidan tashqari ish uchun Mehnat kodeksining 262-, 263-moddalarida belgilangan tartibda haq to‘laydi.</p>	MK 262, 263-moddalari
4.	73-band	<p>Korxonalar rahbarlari fahriy unvon va ilmiy darajaga ega bo‘lgan xodimlarga nisbatan quyidagi qo‘shimcha to‘lovlar belgilash huquqiga ega:</p> <ul style="list-style-type: none"> - “Xalq” va “Xizmat ko‘rsatgan arbob” fahriy unvonlari egalari uchun berib kelinayotgan to‘lovlar bazaviy hisoblash miqdorining 2 barobari, “Xizmat ko‘rsatgan” fahriy unvoni sohiblari uchun esa bazaviy hisoblash miqdorining 1 barobari miqdorida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 17-dekabrda PF-3942 sonli Farmoni); - fan nomzodi yoki falsafa doktori ilmiy darajasiga ega shaxslar uchun - lavozim 	<p>Korxonalar rahbari faxriy unvonga ega bo‘lgan xodimlarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 17-dekabrda PF-3942-sonli Farmoniga muvofiq quyidagi qo‘shimcha to‘lovlar to‘laydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> “Xalq” va “Xizmat ko‘rsatgan arbob” fahriy unvonlari egalari uchun – bazaviy hisoblash miqdorining 3 barobari miqdorida; “Xizmat ko‘rsatgan” fahriy unvoni sohiblari uchun – bazaviy hisoblash miqdorining 1,6 barobari miqdorida (“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist” fahriy unvoni sohiblariga bazaviy hisoblash miqdorining 1,8 barobari miqdorida). Fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) (yoki xorijiy mamlakatlarda ularga tenglashtirilgan darajalar) ilmiy darajasiga ega shaxslar uchun — lavozim maoshining 30 foizigacha; fan doktori (Doctor of Science) (yoki xorijiy mamlakatlarda unga tenglashtirilgan daraja) ilmiy 	<p>Farmonga o‘zgarirish kiritilgan. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.12.2019-yildagi 1030-sonli qaroriga muvofiq 30% ga 60% deya ko‘rsatilgan.</p>

		maoshining 30 foizigacha miqdorida; - fan doktori ilmiy darajasiga ega shaxslar uchun - lavozim maoshining 60 foizigacha qo‘shimcha haq miqdorida.	darajasiga ega shaxslar uchun — lavozim maoshining 60 foizigacha qo‘shimcha haq to‘lanadi.	
VI. MEHNAT XAVFSIZLIGI VA GIGIYENASI.				
8.	83-band	O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-apreldagi 246-sonli qarorning “Mehnatni muhofaza qilish sohasida qayta tayyorlash va malaka oshirish tartibi to‘g‘risida”gi va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-dekabrdagi 1066-son qarori-ning 5-ilovasi “Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmatini yaratish va faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomlar asosida ishlarni tashkil etadi.	O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarorining 1-ilovasi “Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida nizom” talablariga muvofiq ishlarni tashkil etadi;	Yangi ishlab chiqilgan Vazirlar Mahkamasining qarori
9.	86-band	“Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 17-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-apreldagi 246-sonli qarorning “Mehnatni muhofaza qilish	“Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 17-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarorining 2-ilovasi “Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, o‘qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash	Yangi ishlab chiqilgan Vazirlar Mahkamasining qarori

		sohasida qayta tayyorlash va malaka oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan xodimlar, shu jumladan rahbarlar o'z kasblari va ish turlari uchun mehnatni muhofaza qilishning davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda hamda muddatlarda mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'quvdan o'tishi, yo'l-yo'riqlar olishi, bilimlari tekshirilishi va attestatsiyadan o'tishini ta'minlaydi.	to'g'risidagi nizom" talablariga asosan xodimlar, shu jumladan rahbarlar o'z kasblari va ish turlari uchun mehnatni muhofaza qilishning davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda hamda muddatlarda mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'quvdan o'tishi, yo'l-yo'riqlar olishi, bilimlari tekshirilishi va attestatsiyadan o'tishini ta'minlaydi;	
	Yangi band		Tarmoq tizimidagi korxonalarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan sof tushum tarkibida ish haqining ulushi oshirilishiga erishish.	BJK 38-band
	Yangi band		Kasaba uyushmalari tomonidan xodimlarning mehnat malaka darajasini hamda mehnat sharoitlarini hisobga olgan holda ish haqi to'lanilishi ustidan tizimli jamoatchilik nazoratini o'rnatish.	BJK 51-band
10.	Yangi band		Ish o'rinlarining avtomatlashtirilishi, mehnat jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish natijasida ish o'rinlari yo'qotilishi sababli yangi ish o'rinlarini xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratgan holda tashkil etish choralarini ko'rish	BJK 80- band
VIII. IJTIMOIIY IMTIYOZ VA KAFOLATLAR.				
	Yangi band		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasini	BJK 97- band

			amalgam oshirishga oid Davlat dasturlari bajarilishiga har tomonlama ko'maklashish.	
IX. KASABA UYUSHMA TASHKILOTI VA KASABA UYUSHMA FAOLLARINING HUQUQIY KAFOLATLARINI TA'MINLASH.				
13.	Yangi band		Ish beruvchi va xodim o'rtasidagi mehnat munosabatlari o'ld nizolarni sudgacha hal etish jarayonida yarashtiruvchi organ sifatida tomonlarni eshitish va murosaga keltirish choralarni ko'rish.	BJK 20-band
14.	Yangi band		Sun'iy intellekt texnologiyalariga oid normativ-xuquqiy bazani takomillashtirish, sohada standartlar loyihalari ishlab chiqilishida takliflarni birgalikda ishlab chiqish, takomillashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash.	BJK 34-band
15.	Yangi band		Xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va qonuniy manfaatlariga taalluqli normativ-xuquqiy xujjatlar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ xujjatlar loyihalarini tegishli kasaba uyushmalari bilan kelishish ishlarini qat'iy amalga oshirish, shuningdek ishlab chiqishda ishtirokini ta'minlash.	BJK 18-19-bandlar
16.	Yangi band		Tarmoq kasaba uyushmasi Respublika kengashi va boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirokini ta'minlash maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi: korxonalar majlislariga xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan masalalar ko'rib chiqilayotganda kasaba uyushmasi vakillarini taklif etish; kasaba uyushmalari Respublika kengashi raisi va uning o'rinbosarini ijtimoiy sheriklik o'rnatgan	BJK 131-band

			tashkilotning hay'ati majlislarida ishtirokini ta'minlash; boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlari raislarini korxonaning boshqaruv organlariga kiritish.	
XIV. YOSHLAR UCHUN QO'SHIMCHA IMTIYOZ VA KAFOLATLAR. BO'LIMIGA				
19.	Yangi band		Kasbiy ta'lim olishning dual shaklini joriy etish va ishlab chiqarishda "Ustoz-shogird" tizimini rag'batlantirish.	BJK 63- band
	167-band	"Ustoz-shogird" usulini joriy etish borasida hamkorlik ishlarini kuchaytirish, kollej bitiruvchilarining to'liq bandligini ta'minlashga erishish hamda ish qo'nimsizligi bo'yicha muntazam monitoring olib borish;	"Ustoz-shogird" usulini joriy etish borasida hamkorlik ishlarini kuchaytirish, kollej va texnikum bitiruvchilarining to'liq bandligini ta'minlashga erishish hamda ish qo'nimsizligi bo'yicha muntazam monitoring olib borish.	
XIV. KELISHUVNING BAJARILISHINI TASHKIL ETISH VA NAZORAT QILISH TARTIBI.				
			Boshlang'ich darajadagi ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha komissiyalar tuzilishiga ko'maklashish.	BJK 127-band
XVII. KORXONALARNI XUSUSIYLASHTIRISHDA XODIMLAR MANFAATINI HIMOYALASH.				
20.	Yangi band		Davlat xaridlari bo'yicha tender komissiyalari ishiga tarmoq kasaba uyushmasi Respublika kengashi vakillarini maslahat ovozi huquqi bilan jalb qilish	BJK 17-band
XVIII. KELISHUVNING AMAL QILISHI, UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI VA BAJARILISHI UCHUN TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.				

	Yangi band		<p>“O‘zfarm sanoat” Assotsiatsiyasi Tarmoq kasaba uyushmasi bilan kollegial organlarining qo‘shma yig‘ilishini o‘tkazib borish va yillik qo‘shma dastur tasdiqlanadigan tizimni yo‘lga qo‘yish.</p>	BJK 132- band
	Yangi band		<p>Taraflar mazkur kelishuvning amal qilish davrida quyidagilarni zarur deb hisoblaydilar:</p> <p>a) ijtimoiy-mehnat munosabatlari-ning eng muhim masalalari yuzasidan Taraflarning manfaatlariga taalluqli qarorlar qabul qilishdan oldin o‘zaro maslahatlashuvlar o‘tkazish;</p> <p>b) har yili kamida bir marta ushbu kelishuv bajarilishini va yakunlarini muhokama qilib borish;</p> <p>v) ushbu kelishuv bajarilishi ta’minlanib borilayotgan taqdirda, ish tashlash amallaridan voz kechish.</p>	BJK 140- band